

MINTAQADA KLASTERLARNI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY MODELLARNI QO‘LLASH MASALALARI

Kadirov San‘at Yuldashevich

Urganch Ranch-texnologiya universiteti
Iqtisodiyot kafedrası o‘qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada mintaqada klasterlarni rivojlantirishda zamonaviy modellarni qo‘llash masalalari yoritilgan. Shuningdek, mintaqada klasterlarni rivojlantirishda zamonaviy modellarni qo‘llash bo‘yicha ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: mintaqa, klaster, model, davlat, innovatsion klaster, aglomeratsiya, hududiy rivojlanish.

Аннотация

В данной статье освещаются вопросы применения современных моделей при развитии кластеров в регионе. Также разработаны научные предложения и практические рекомендации по применению современных моделей в развитии региональных кластеров.

Ключевые слова: регион, кластер, модель, государство, инновационный кластер, агломерация, региональное развитие.

Abstract

This article highlights the issues of applying modern models in the development of clusters in the region. In addition, scientific proposals and practical recommendations have been developed for the application of modern models in regional cluster development.

Keywords: region, cluster, model, state, innovation cluster, agglomeration, regional development.

KIRISH

Klasterli yondashuv muayyan sohalarda boshqarish uchun ko‘p qo‘llaniladigan usul bo‘lib hisoblanadi. Chunki, innovatsiya sohasida davlat hokimiyati organlari alohida o‘rin tutadi. Bu borada mintaqaviy klasterlar tarkibi tarmoqlararo aloqalarning rivojlanishi tufayli hududdagi iqtisodiy faoliyat turiga qaraganda samarali bo‘lib qaraladi. Chunki, tashqi muhitning dinamik tabiati tufayli mintaqaviy innovatsiyalar va klasterlarni moslashuvchan davlat boshqaruvi modelini ishlab chiqishga ehtiyoj mavjud bo‘ladi. Ya‘ni, klaster ishtirokchilari o‘rtasida miqyos va bilim almashish orqali mahsuldorlikni oshirish va bozor raqobatbardoshligini oshirish uchun qulay muhit yaratadi. Mintaqada klasterlarni rivojlantirish modellari va yo‘nalishlarini tanlashda mintaqaning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olish, uning iqtisodiy salohiyatini, resurs bazasini, infratuzilma darajasini va madaniy an‘analarini tahlil qilish zarur. Klasterlarni rivojlantirish davlat va biznes o‘rtasida samarali hamkorlikni, innovatsion faoliyatni rag‘batlantirishni, malakali kadrlar tayyorlashni va qulay investitsiya muhitini yaratishni talab qiladi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Klaster tarkibida moslashuvchan davlat boshqaruvi modeli klasterlarni rivojlantirishdagi noaniqlik sharoitida samarali ishlaydi. Mazkur model vositalar o'zgarishiga va jarayonning belgilangan maqsadlari algoritmiga asoslanadi. Ya'ni, mintaqaviy innovatsiyalar va klasterlarni moslashuvchan davlat boshqaruvi modelining joriy etilishi innovatsiyalarni rivojlantirish, mintaqqa iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirish, tarmoqlararo va mintaqalararo hamkorlikni kengaytirish hamda hududda yuqori sifatli inson kapitalini shakllantirish uchun yetarli shart-sharoit yaratishga imkon beradi [1]. Mintaqada klasterlarni rivojlantirish modellaridan foydalanish uchun klasterlarni adaptiv davlat boshqaruvi modelini joriy etish lozim. Bu orqali innovatsiyalarni rivojlantirish, hudud iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirish, tarmoqlararo va hududlararo hamkorlikni kengaytirish, hududda yuqori sifatli inson kapitalini shakllantirish uchun shart-sharoit yaratiladi.

Tadqiqotlarda hududlar innovatsion klasterlari va mintaqaning innovatsion rivojlanish ko'rsatkichlari tahlil qilinadi. Xususan, unga asosan, sanoat majmuasining innovatsion faoliyati tayyorgarliksiz amalga oshiriladi va sanoat majmuasining innovatsion faolligi ko'rsatkichlari statistik tahlil qilinadi. Hududiy sanoat majmuasini samarali innovatsion rivojlantirish uchun texnologik bazani modernizatsiya qilish zarur. Shularga asosan, innovatsion klasterlarga asoslangan hududiy sanoatni innovatsion rivojlantirish modeli taklif etiladi [2].

Mintaqada klasterlarni rivojlantirishni asosini klaster unsuri tashkil etib, ushbu unsur bevosita innovatsiya asosida samarali taraqqiy qilib borishi lozim. Ya'ni, klaster innovatsion faol bo'lgan korxonalarining doimiy konsentratsiyalashib borishini anglatadi. Ya'ni, innovatsion faollik, firma va korxonalar faoliyatlarini innovatsion rivojlanishga yo'naltirilishini nazarda tutadi [3].

Klasterlar orqali mos mintaqaning iqtisodiy tuzilmasini taraqqiy qildirish uchun o'zaro hamkorlikda mos innovatsion model yaratiladi. Jumladan, klaster faoliyati modelini yaratish integratsiyaga yondashuvlar, jumladan, iqtisodiy integratsiya vositalaridan foydalanishni takomillashtirish uchun yetarli asos yaratadi va mavjud imkoniyatlarni ochadi [4].

Asosiy masala bo'lib innovatsion klasterlarni yaratish sifatida uning orqali iqtisodiy salohiyatni oshirish rejalari belgilanadi. Unga asosan, mintaqqa iqtisodiy hududini boshqarishning innovatsion klasterlarini shakllantirish asosida iqtisodiy rivojlanishni modellashtirishning uslubiy vositalari takomillashtiriladi. Buning uchun innovatsion klasterlarni shakllantirishning iqtisodiy-matematik modelini ishlab chiqish va hududiy rivojlanishni prognozlash va rejalashtirishning uslubiy salohiyatini kengaytirish talab etiladi. Ya'ni, klasterda optimal hududiy joylashuvni aniqlash va ishlab chiqarishni uzoq muddatli rivojlantirish muammosi shartlarini belgilaydigan innovatsion klasterlarni shakllantirish jarayoniga e'tibor qaratiladi [5]. Shular orqali mintaqada klaster tashabbusini samarali amalga oshirish jarayonida yangi tarmoqlarning hududiy taqsimlanishini optimallashtirishga erishiladi. Bu bilan mavjud tarmoqlarni rivojlantirish muammolari ko'rib chiqiladi hamda innovatsion klasterlarni shakllantirish va rivojlantirishni matematik modellashtirishga yondashuvlar

umumlashtiriladi. Mintaqani samarali boshqarish uchun innovatsion klasterini shakllantirishning iqtisodiy-matematik modeli tuziladi. Shunga asosan, innovatsion klaster asosida mintaqani iqtisodiy rivojlanishning optimallashtirish muammosi ko'rib chiqiladi.

Mintaqaning iqtisodiy rivojlanishi uchun iqtisodiyot tarmoqlarida klasterlar innovatsion siyosatni ishlab chiqish uchun zarur bo'ladi. Ya'ni, agroklastlarlar qishloq xo'jaligi sanoatida innovatsion rivojlanishni rag'batlantirishning istiqbolli modeli bo'lib xizmat qiladi [6]. Shunga asosan, hamkorlikdagi sa'y-harakatlar va umumiy resurslar orqali ushbu klasterlar zamonaviy texnologiyalar, tadqiqot yutuqlari va barqaror amaliyotni integratsiyalaydi. Mintaqada klasterlarni rivojlantirish uchun quyidagi zamonaviy modellar qo'llaniladi. Bu borada klasterlarning eng ko'p qo'llaniladigan tipologiyalaridan biri Markusen (1996-y.) tomonidan ishlab chiqilgan tipologiya bo'lib, u klaster a'zolari roli va ularning o'zaro ta'siriga asoslangan quyidagi to'rtta modelni taklif qiladi [7]:

- marshalli klaster modeli. Bu modelda klasterlar bir xil bo'lib, firmalar hamkorlik qiladi va raqobatlashadi. Ammo, guruhni nazorat qilish huquqiga ega bo'lmaydi.

- spiral klaster modeli. Bu modelda bir nechta firmalar hukmronlik qiladi, boshqa kichik firmalar ularga bog'langan bo'ladi.

- sun'iy yo'ldosh platformasi modeli. Bu modelda ba'zi ko'p millatli firmalar va ularning filiallari mintaqaning rivojlanishiga ta'sir qiladi va mahalliy yetkazib beruvchilar uchun imkoniyatlar yaratadi. Ammo, mintaqaviy firmalar bir-biri bilan bog'lanishi shart emas.

- davlat klaster modeli. Bu modelda hukumat harakatlari mintaqaga ta'sir qiladi va guruh a'zolari o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni osonlashtiradi yoki ba'zan to'sqinlik qiladi.

METODOLOGIYA

Mazkur tadqiqot ishini amalga oshirishda ilmiy tadqiqot metodologiyasida keng qo'llaniladigan turli usullardan foydalanildi. Xususan, ushbu tadqiqotda mintaqada klasterlarni rivojlantirishda zamonaviy modellarini qo'llashda kuzatish, mantiqiy fikrlash, tarkibiy tahlil, qiyosiy tahlil, ilmiy abstraksiyalash, ma'lumotni guruhlash, analiz va sintez, induksiya va deduksiya usullaridan samarali foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mintaqada klasterlarni rivojlantirish modellari xilma-xil bo'lib, bu bo'yicha turli yondashuvlar to'plangan. Ular mintaqaning o'ziga xos sharoitlari, resurslari va maqsadlariga bog'liq bo'ladi. Shulardan kelib chiqib, mintaqada klasterlarni rivojlantirishning quyidagi samarali modellari qo'llaniladi:

- an'anaviy klassik model. Klaster a'zolari o'rtasida bilim almashinuvi, hamkorlik va raqobatni rag'batlantiradi. Bu esa innovatsion g'oyalar va texnologiyalarning tezroq tarqalishiga imkon beradi.

- innovatsion ekosistema modeli. Ushbu model klaster modelining kengaytirilgan versiyasi bo'lib, unda turli manfaatdor tomonlar (startaplar, venchur

kapital egalari, davlat tashkilotlari, universitetlar va boshqalar) o'rtasida o'zaro bog'liqlik va hamkorlikka e'tibor qaratiladi. Yangi g'oyalar va texnologiyalarni yaratish va tijoratlashtirish uchun qulay muhit yaratadi.

- texnologik parklar va innovatsion markazlar modeli. Ular yangi texnologiyalarni ishlab chiqish va tijoratlashtirishga yo'naltirilgan maxsus infratuzilma va xizmatlarni taqdim etadi. Ya'ni, bular startaplar va innovatsion kompaniyalar uchun inkubatsiya, akseleratsiya va moliyalashtirish dasturlarini taklif etadi.

- raqamli model. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda geografik jihatdan tarqalgan kompaniyalar va tashkilotlarni birlashtiradi. Raqamli platformalar, katta ma'lumotlar va sun'iy intellekt orqali innovatsiyalarni rag'batlantiradi.

- barqaror rivojlanish modeli. Ekologik toza texnologiyalar, qayta tiklanadigan energiya va resurslarni tejashga yo'naltiriladi. Barqaror yechimlarni ishlab chiqish va joriy etishni rag'batlantiradi.

Mintaqada klasterlarni rivojlantirish modellari va yo'nalishlari hududning iqtisodiy xususiyatlari, resurs salohiyati, infratuzilma darajasi, madaniy an'analari va boshqa omillarga bog'liq bo'ladi. Ushbu modellarning asosiy maqsadi mintaqaning raqobatbardoshligini oshirish, ish o'rinlari yaratish, innovatsiyalarni rag'batlantirish va aholi turmush darajasini yaxshilashdir. Bu borada mintaqalar uchun klasterlarni rivojlantirish modellari quyidagi guruhlanadi:

1) "Pastdan yuqoriga" (Bottom-up): Bu modelda klasterlar tadbirkorlar, kompaniyalar va mahalliy tashabbuskor guruhlar tashabbusi bilan tabiiy ravishda shakllanadi. Davlatning roli klasterlarga qulay shart-sharoitlar yaratish, infratuzilmani rivojlantirish va huquqiy bazani ta'minlashdan iborat bo'ladi. Mahalliy ehtiyojlarni yaxshi qondiradi, barqaror va uzoq muddatli rivojlanishni ta'minlaydi. O'z-o'zidan rivojlanishi uzoq vaqt talab qilishi mumkin, davlatning faol ishtirokisiz zaif bo'lishi mumkin.

2) "Yuqoridan pastga" (Top-down): Bu modelda klasterlarni davlat organlari tashabbusi bilan yaratiladi. Davlat strategik ahamiyatga ega bo'lgan sohalarda klasterlarni rivojlantirishga investitsiya kiritadi, ularni qo'llab-quvvatlaydi va rivojlanishini nazorat qiladi. Tez natijalarga erishish mumkin, strategik sohalarni rivojlantirish uchun samarali, davlatning resurslaridan foydalanish imkoniyati mavjud. Mahalliy ehtiyojlarni to'liq hisobga olmasligi mumkin, davlat aralashuvi biznes faoliyatini cheklashi mumkin, barqarorlik kafolati past.

3) Gibril model: Bu model "pastdan yuqoriga" va "yuqoridan pastga" modellari elementlarini birlashtiradi. Davlat klasterlarning shakllanishiga qulay sharoit yaratadi, infratuzilmani rivojlantiradi va moliyaviy qo'llab-quvvatlaydi, shu bilan birga tadbirkorlarning tashabbusini ham rag'batlantiradi. Mintaqaviy xususiyatlarni hisobga olgan holda davlat resurslaridan va tadbirkorlik tashabbuslaridan samarali foydalanish imkoniyati mavjud. Davlat va biznes o'rtasida muvaffaqiyatli hamkorlikni ta'minlash murakkab vazifa, muvofiqlashtirish muammolari yuzaga kelishi mumkin.

Ayniqsa, mintaqada klasterlarni rivojlantirishning zamonaviy modellari global tajribaga asoslangan bo'lib, mahalliy sharoitlarni hisobga olgan holda qo'llaniladi.

Ushbu modellar klasterlarning barqaror rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan bo'lib, quyidagi asosiy yo'nalishlarni o'z ichiga oladi (1-jadval):

1-jadval

Mintaqada zamonaviy klasterlarni rivojlantirish modellari¹

| № | Zamonaviy klasterlar tarkibi | Zamonaviy klasterlar modellari yo'nalishlari |
|----------|-------------------------------------|--|
| 1 | Innovatsion ekotizimli klasterlar | Ushbu klasterlar innovatsiyalarni yaratish va tarqatish markaziga aylanadi. Bu model ilmiy-tadqiqot institutlari, universitetlar, startaplar va yirik korxonalar o'rtasida hamkorlikni rag'batlantiradi |
| 2 | Raqamli klasterlar | Klaster faoliyatiga raqamli texnologiyalarni (sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar, blokcheyn va IoT) integratsiya qilish orqali samaradorlikni oshirishga asoslanadi |
| 3 | Yashil klasterlar | Klaster faoliyatida ekologik tozalik va barqarorlik tamoyillarini qo'llash. Bu model resurslardan tejamkorlik bilan foydalanish, chiqindilarni kamaytirish va qayta ishlash, qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishni rag'batlantiradi |
| 4 | Ijtimoiy klasterlar | Klaster faoliyatining ijtimoiy ta'sirini kuchaytirish. Bu model ijtimoiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, aholi bandligini oshirish, ta'lim va sog'liqni saqlash sohalarini rivojlantirishga qaratilgan |
| 5 | Transchegaraviy klasterlar | Geografik jihatdan yaqin bo'lgan, ammo turli davlatlarga tegishli bo'lgan korxonalar o'rtasida hamkorlikni o'rnatishdan iborat |

Natijada, bozorlarni kengaytirish, resurslardan birgalikda foydalanish, innovatsion tajribani almashish, mintaqaviy integratsiyani kuchaytirishga erishiladi.

Ammo, mintaqada klasterlarni rivojlantirishda muvaffaqiyatga erishish uchun quyidagi omillarni hisobga olish zarur:

- mahalliy sharoitlarni tahlil qilish: Mintaqaning iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik xususiyatlarini hisobga olish.
- davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash: Klasterlarni rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratish, moliyaviy va institutsional yordam ko'rsatish.
- klaster ishtirokchilari faolligi: Korxonalar, ilmiy-tadqiqot institutlari, universitetlar va davlat organlari o'rtasida hamkorlikni ta'minlash.
- monitoring va baholash: Klaster faoliyatining natijalarini muntazam ravishda baholash va zarur tuzatishlar kiritish.

Mazkur zamonaviy modellar klasterlarning yanada barqaror va samarali rivojlanishiga yordam beradi hamda mintaqaning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishiga hissa qo'shadi.

Mintaqada klasterlarni samarali innovatsion va istiqbolli rivojlantirish ko'p qirrali vazifa bo'lib, kompleks yondashuvni, strategik rejalashtirishni va barcha manfaatdor tomonlarning faol ishtirokini talab etadi. Maqsadlarga erishish uchun aniq harakatlar rejasi, resurslarni taqsimlash va monitoring tizimini o'z ichiga olgan strategiya ishlab chiqish zarur. Shu orqali mintaqaning ixtisoslashuvi va raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan istiqbolli tarmoqlarni aniqlash mumkin bo'ladi.

¹ Muallif ishlanmasi

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mintaqada klasterlarni samarali rivojlanishi uning mos modellari va asosiy yoʻnalishlariga bogʻliq boʻladi. Buning uchun klasterlar faoliyati uchun xos boʻlgan innovatsiyalarni modellashtirish maqsadida innovatsion hayot sikli turli bosqichlariga asoslangan holda toʻliq ravishda amalga oshirilishi kerak. Bu borada innovatsion loyihalar tuzilishi koʻrib chiqiladi, innovatsion loyihalarni tanlash tartibi taklif etiladi hamda turli maqsadlar uchun texnik komplekslar va texnologik faoliyatni modellashtirish uchun tanlov sxemasi taqdim etiladi. Dastlab modellashtirishning nazariy jihatlari, soʻngra esa uning amaliyoti koʻrib chiqiladi. Shunga asosan, mintaqa iqtisodiyotini rivojlantirish muammolarini hal qilish uchun innovatsion rivojlanish yoʻliga oʻtish va bilimga asoslangan iqtisodiyotni yaratish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Mozaleva N., Kulkaev G., Ivanova M., Yakimchuk N. (2024). Model of Adaptive Public Management of Regional Innovation and Industrial Clusters. In: Devezas T.C., Berawi M.A., Barykin S.E., Kudryavtseva T. (eds) Understanding the Digital Transformation of Socio-Economic-Technological Systems. Lecture Notes in Networks and Systems, vol 951. Springer, Cham. https://doi.org/10.1007/978-3-031-56677-6_32
2. Тюкавкин Н.М., Гоман К.И. Инновационная модель кластерного развития региона. // Вестник Самарского университета. Экономика и управление, 2020, 11(1). - с. 75-83.
3. Урдушев Х., Эшонкулов С.Ҳ. Кластерлар ва уларнинг ишлаб чиқариш жараёнларини оптималлаштириш усуллари билан такомиллаштириш. // “UzBridge” электрон журнали, 2-сон, октябрь, 2019. - 14 б.
4. Гозиев М.Ш., Хасанова Р.Р. Создание модели интеграции кластеров для реализации инновационных проектов. // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(2), Feb., 2023. - с. 60.
5. Napolskikh D. & Yalyalieva T.V. (2019) "Modeling Of Regional Economic Development Based On Innovative Clusters, // Regional Science Inquiry, Hellenic Association of Regional Scientists, vol. 0(2). - pp. 73-81.
6. Белая Р., & Узганбаева Д. (2024). Agro-industrial clusters as a form of innovative development in the industry. Новый Узбекистан: наука, образование и инновации, 1(1). – с. 578-579.
7. Markusen A. (1996) Sticky places in slippery space: a typology of industrial districts. Econ. Geogr., 72 (3), pp. 293-313.



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir:

Ingliz tili muharriri:

Rus tili muharriri:

Musahhah:

Sahifalovchi va dizaynerlar:

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li

Karimova Shirin Zoxid qizi

Sadikov Shoxrux Shuxratovich

Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2025-yil, oktabr, 10-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta:

info@marketingjournal.uz

Bot:

[@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)

Tel.:

+998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOCT 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**